



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQIDA YENGILROQ JAZO TAYINLASHNING AYRIM JIHLTLARI

Sharipova Dilbar

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil-sudlov fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7514679>

ARTICLE INFO

Received: 27th December 2022

Accepted: 07th January 2023

Online: 08th January 2023

KEY WORDS

Odillik prinsipi, yengilroq jazo, dispozitsiya, sanksiya, insonparvarlik prinsipi.

ABSTRACT

Jinoyatlar uchun ma'lum bir jazo turi sanksiyada belgilangan bo'ladi. Ammo jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini keskin kamaytiruvchi holatlar mavjud bo'lganda, qonunchiligimizdagi insonparvarlik pirinsipidan kelib chiqqan holda Jinoyat kodeksida "Yengilroq jazo tayinlash" ham nazarda tutilgan. Bu norma insonparvarlik prinsipining yaqqol namunasi bo'lib, ko'pgina davlatlarning Jinoyat kodeksida ifodalangan. Maqolada yengilroq jazo tayinlashning alohida xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Jinoyat uchun adolatli jazo tayinlash, Jinoyat kodeksining odillik prinsipini hamda jinoiy odil sudlovni amalga oshirishning muhim kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jazo tayinlashning umumiy asoslariga ko'ra jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tegishli moddasida ko'rsatilgan jazo choralari qo'llanilishi lozimligi belgilangan Jinoyat kodeksining 57-moddasida, ba'zan Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan yengilroq jazo turini ham tayinlash mumkinligi belgilangan. Bu moddaning asosiy jihatini shu bilan izohlashimiz mumkinki, qonun chiqaruvchi organ Jinoyat kodeksi Maxsus qismi dispozitsiyalarini tuzib chiqar ekan, unda ro'y berishi mumkin bo'lgan vaziyatlar yuzasidan barcha holatlar, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi jihatlarni to'la yoritib berolmaydi. Shuning uchun, ayrim holatlarda sud sanksiyada ko'rsatilgan eng yengil jazoni qo'llaganida ham, jazo ayblanuvchi uchun og'ir bo'lishi va bu holatda jazo Jinoyat kodeksi 42-moddasida nazarda tutilgan maqsadlariga nomuvofiq bo'lishi mumkin.

Qonunga bu istisno holat insonparvarlik prinsipidan kelib chiqib jazo tayinlashni liberallashtirish maqsadida kiritilgan. Shunga alohida e'tibor qaratish lozimki, Jinoyat Kodeksi Maxsus qismi tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilmagan yengilroq jazo tayinlanishi mumkin, ammo sanksiyada ko'rsatilmagan og'irroq jazoning qo'llanilishiga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi.

M.H.Rustambayev fikriga ko'ra, Jinoyat Kodeksining 57-moddasida yengilroq jazo faqat ikkita huquqiy asos mavjud bo'lgandagina qo'llanilishi mumkin. Bular:

1) Sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarda;



2) Alohida hollarda¹;

Xo'sh, bu borada qaysi holatlar jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar hisonlanadi?

A.S. Yakubov fikriga ko'ra, Jinoyat kodeksi 57-moddasining 3-qismiga muvofiq, qilmishni va aybdorning shaxsini, uning aybdorlik darajasini hamda shaklini, shaxsning jinoyat sodir etishdan avvalgi va keyingi xulqini, jinoyatlarning sodir etilish sabablari, ularga imkon bergan holatlarni birgalikda aks ettiruvchi holatlar jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ancha kamaytiruvchi holatlar deb topilishi mumkin².

Mazkur asoslarning borligi sudga yengilroq jazo chorasi qo'llanilishi imkoniyatini beradi. Keltirilgan asoslardan birining yo'qligi ham sudga mazkur modda qo'llanilishiga cheklov o'rnatadi.

Bundan tashqari, ushbu modda sudlanuvchiga yengilroq jazo tayinlashning ikki usulini nazarda tutadi, ya'ni:

1)Sanksiyada ko'rsatilgan jazoning eng kam qismidan ham kamroq jazo tayinlash;

2)Yengilroq jazo turini tayinlash³;

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yengilroq jazo tayinlashning ba'zi zarur jihatlari to'g'risida fikr yuritib o'tamiz.

Sanksiyada nazarda tutilgan jazoning eng kam qismidan ham kamroq jazo tayinlash-bu, jazoni yengillatishni anglatadi. Masalan, Jinoyat kodeksi 110-moddasi birinchi qismiga muvofiq, "Qiydash" jinoyatini sodir etgan shaxs bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi⁴. Ushbu modda bo'yicha sud sudlanuvchiga ko'rsatilgan jazo chorasining eng kam qismidan(bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari) ham kamroq jazo chorasi qo'llashi mumkin. Ammo Jinoyat kodeksi Umumiy qismida ushbu jazo turi uchun nazarda tutilgan eng kam miqdordan ya'ni, Jinoyat kodeksi 44-moddasida nazarda tutilgan jarimaning eng kam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan kam bo'lmasligi kerak.

Yengilroq jazo tayinlash esa, sud tomonidan qo'llanilayotgan moddada nazarda tutilgan jazo turi o'rniga aybdorga boshqa, Jinoyat kodeksining 43-moddasida belgilangan jazo turlaridan yengilroq'i tayinlanishi mumkin. Bunday vaziyatda sud tanlagan jazo turining miqdori Jinoyat kodeksi Umumiy qismi moddasida nazarda tutilgan doiradan kam bo'lishi mumkin emas. Agar tegishli moddaning sanksiya qismida sudya qo'llashi mumkin bo'lgan yengilroq jazo turi nazarda tutilgan bo'lsa, sud tomonidan 57-moddani qo'llamasdan jazo tayinlanishi mumkin. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida qo'shimcha jazo sifatida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini qo'llash keltirib o'tilgan. Ammo Jinoyat kodeksi 57-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lganda sud qo'shimcha jazoni

¹ Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Darslik-Toshkent:TDYU nashriyoti,2019-B 386-387

² Yakubov A.S. Jinoyat kodeksi(Umumiy qism).Darslik-Toshkent:TDYU nashriyoti,2020-B 329-330

³ Rustambayev M.X. Jinoyat kodeksiga sharhlar(Umumiy qism)-Toshkent:"Yuridik adabiyotlar publish" nashriyoti,2021-B 536-537

⁴ Rustambayev M.X. Jinoyat kodeksiga sharhlar(Umumiy qism)-Toshkent:"Yuridik adabiyotlar publish" nashriyoti,2021-B 536-537



qo'llamasligi ham mumkin. Masalan, Jinoyat kodeksi 206-moddasida "Mansabga sovuqqonlik bilan qarash" jinoyati uchun sanksiya qismida qo'shimcha jazo sifatida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini tayinlash majburiy o'rnatilgan. Lekin aytib o'tganimizdek, sud 57-modda bilan asoslantirib, qo'shimcha jazoni qo'llamasligi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risidagi" Plenum qaroriga ko'ra sudlar 57-moddani qo'llab yengilroq jazo tayinlayotganlarida, nafaqat shaxsning jinoyat sodir etish paytida ko'zlagan motiv va maqsadi, ayb shakli va darajasiga, balki, aybdorning shaxsiga, uning jinoyat sodir etilishidagi roliga hamda jinoyat sodir etilishi paytidagi va undan keying xulq-atvori, jinoyat sodir etilishiga olib kelgan shart-sharoitni ham e'tiborga olishi kerak⁵.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 57-moddani qo'llanilishi uchun ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi alohida holatlar bo'lishi lozim. Lekin bu ro'yxat modda dispozitsiyasida keltirilmagan. Shuning uchun, sudlar sud qabul qilgan qarorini hukmda asoslantirgan holda jazoni yengillashtiruvchi ayrim holatni ham, ularning majmuini ham bunday holat sifatida tan olishi mumkin (masalan moddiy zararining to'liq qoplanganligi, sudlanuvchi yoki ota-onasining og'ir kasalligi, ularning mehnatga layoqatsizligi, aybdor ota-onasining yoki bolasining boshqa boquvchisi yo'qligi, sudlanuvchining keksa yoshda ekanligi, uning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatni ochishda faol ishtirok etganligi, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishiga turtki bergan huquqqa xilof xulq-atvori, jabrlanuvchining sudlanuvchi bilan yarashganligi va h.k.)⁶.

Agar shaxs Jinoyat kodeksining turli moddalari yoki moddasi qismlari bilan sudlanayotgan bo'lsa, Jinoyat kodeksi 57-moddasi jinoyatlar jami bo'yicha tayinlangan jazodan keyin emas, balki alohida jinoyatlar uchun jazo tayinlash paytida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi Plenum qarori⁷ga binoan Jinoyat kodeksi 57-moddasi iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun ham qo'llanilishi mumkin. Bunday turdagi jinoyatlarda jinoyat natijasida yetkazilgan zarar summasining kamida yarmi aybdor tomonidan qoplanganligi jazoni jiddiy kamaytiruvchi holat deb topilishi mumkin.

Shu o'rinda, xorijiy davlatlar qonunchiligini ham tahlil qilib, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksiga e'tibor bersak, mazkur kodeksning 64-moddasida quyidagi norma o'rnatilganligini ko'rishimiz mumkin:

"Jinoyatning maqsad va motivlari, aybdorning roli, uning jinoyat sodir etish vaqtidagi yoki sodir etilganidan keyingi xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar hamda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli darajada kamaytiradigan boshqa holatlar mavjud bo'lganda, shuningdek, guruh jinoyati ishtirokchisi ushbu jinoyatni fosh etishda faol yordam bergan taqdirda, jazo Jinoyat kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori

⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi Plenum qarori



tutilgan kam chegaradan ham kamroq yoki sud tomonidan yanada yengilroq jazo tayinlanishi mumkin”⁸.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida belgilangan bu norma bizning qonunchilikdagi normaga yaqinroq hisoblanadi. Shu qatorda, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida ham yengilroq jazo tayinlashning uchta asosi ko’rsatilgan. Ular:

- 1) Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng kam jazoni tayinlash;
- 2) Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasida nazarda tutilmagan bo’lsada, yengilroq jazo turini tayinlash;
- 3) Qo’shimcha jazo turini qo’llamaslik; (Agar u majburiy jazo tariqasida nazarda tutilgan bo’lsa)⁹.

Bundan tashqari, Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksi 59-moddasiga muvofiq, ushbu kodeksning 62-moddasida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar aniqlanganda, sud sodir etilgan holatlarni hisobga olgan holda, muayyan jinoyat uchun qonunda belgilangan jazodan yengilroq jazo tayinlashga haqli¹⁰.

Yuqoridagilarga asoslangan holda xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, faqat asosli va odilona jazo tayinlash orqaligina jamiyatni jinoiy xurujlardan samarali himoya etish, sudlanganlarni tuzatishga va qayta tarbiyalashga erishishimiz mumkin. Shu ma’noda, Jinoyat kodeksimizda aynan qonunda nazarda tutilganidan ham yengilroq jazo tayinlash belgilanganligi, jazolar va qonunchilikni liberallashtirishda muhim omil hisoblanadi desak mubolag’a bo’lmaydi. Jinoyat kodeksi 57-moddasini qo’llagan holda jazo tayinlashda, nafaqat shaxsning jinoyat sodir etish vaqtida ko’zlagan motiv va maqsadi, ayb shakli va darajasini, balki, aybdorning shaxsi, jinoyat ishtirokchilari orasidagi roli, jinoyat sodir etilish paytidagi yoki sodir etilganidan keyingi xulq-atvori, jinoyatni sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitni ham e’tiborga olishlari lozim.

⁸ Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi-21.11.2022(yangi tahrirdan)

⁹ Помощник прокурора района юрист 1 класса Е.В. Васильева-“Основания назначения более мягкого наказания”-2022

¹⁰ Мəhkəmələr tərəfindən cinayət cəzalarının təyin edilməsi təcrübəsi haqqında-, 25 iyun 2020-cü il, N_4-Bakı şəhəri